



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI
HUZURIDAGI AGROSANOAT MAJMUI USTIDAN NAZORAT
QILISH INSPEKSIYASI BOSHLIG'NING
BUYRUG'I

2023-yil «5» may

UM-6-23

B U Y R U Q

Farg'ona viloyati tumanlari hokimliklarida iqtisodiy jihatdan samarasiz, kam hosil beradigan bog' va tokzorlarni yaroqsiz deb topish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga rioya etilishini o'rganish, o'rganishning maqsadi, o'rganuvchi xodimlarning tarkibi va o'rganish o'tkazish muddatlarini belgilash haqida

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-dekabrdagi 1012-sonli qarori hamda Inspeksianing 2023-yil I yarim yillik ish rejasi 15-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 9-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagagi 575-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zagroinspeksiya to'g'risida"gi nizomning 12-band va 17-band "j" kichik bandiga asosan

B U Y U R A M A N :

1. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-dekabrdagi 1012-sonli qarori bilan tasdiqlangan "*Iqtisodiy jihatdan samarasiz, kam hosil beradigan bog' va tokzorlarni yaroqsiz deb topish tartibi to'g'risida*"gi nizom talablariga Farg'ona viloyati tumanlari hokimliklari tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat tadbirlari (o'rganish) o'tkazilsin.

2. O'rganish Inspeksianing Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'lari yetishtirilishini nazorat qilish boshqarmasi bosh mutaxassisini X.Mahmudov rahbarligida, boshqarma yetakchi mutaxassisi Z.Ismatov, Farg'ona viloyat boshqarmasi sho'ba boshlig'i R.Axmedovlardan iborat ishchi guruhi tomonidan 2023-yilning 22-25-may kunlari amalga oshirilsin va ishchi guruh a'zolari shu muddatga Farg'ona viloyatiga xizmat safariga yuborilsin.

3. O'rganish dasturi (savolnoma) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ishchi guruh rahbari (X.Maxmudov):

o'rganish dasturiga muvofiq ishchi guruh a'zolarining vazifalarini taqsimlasin va ular faoliyatini muvofiqlashtirsin;

o'rganishning boshlanishi, muddatlari va predmeti haqida o'rganiluvchi subyektlarni xabardor qilsin;

mazkur buyruq va o'rganish o'tkazish uchun asos hisoblanuvchi boshqa hujjatlar, o'rganuvchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bilan tanishtirsin;

o'rganiluvchi subyektlar ishlashiga xalal bermaslik choralarini ko'rsin; davlat siri, tijorat yoki boshqa sirlar saqlanishini ta'minlasin;

o'rganishniadolatli, haqqoniy, o'rganish dasturi (savolnomasi)ga va amaldagi normativ-huquqiy, texnik va me'yoriy hujjatlar talablariga asosan to'laqonli hamda sifatli o'tkazilishini ta'minlasin;

o'rganishlar natijalarini dalolatnoma bilan rasmiylashtirib, uning bir nusxasini o'rganish tugagan kuni o'rganilayotgan subyektlarda qoldirsin;

o'rganishda aniqlangan qonun buzilishi holatlari yuzasidan aybdor shaxslarga nisbatan belgilangan tartibda tegishli choralar ko'rish bo'yicha rahbariyatga asoslangan taklif (hujjatlar yig'ma jildi bilan birga) kiritsin;

o'rganishni amalga oshirishda amaldagi qonun hujjatlari talablariga qat'iy amal qilsin.

Mazkur o'rganishlar bo'yicha mas'uliyat va shaxsiy javobgarlik, o'rganishni amalga oshirayotgan ishchi guruh a'zolarining zimmasiga yuklansin.

5. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (J.Safarov) xizmat safariga yuborilayotgan xodimlarning hujjatlarini rasmiylashtirsin, Moliya-iqtisod bo'limi (K.Baxorov) xizmat safari xarajatlarini belgilangan tartibda amalga oshirsin.

6. Inspeksiyaning Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig'i va o'rganiluvchi subyektlar rahbarlari "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazarat qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 16-moddasiga asosan Ishchi guruh a'zolariga ularning qonuniy talabiga binoan o'rganish o'tkazish uchun zarur bo'lgan materiallar va hujjatlarni taqdim etishni tashkillashtirsin, shuningdek, ularga o'z vazifalarini bajarishlari uchun ko'maklashilsin va amaliy yordam ko'rsatilsin.

7. Axborot-tahlil, ijro intizomi va ma'muriy amaliyot boshqarmasi boshlig'i o'rribosari (A.Yuldashev) o'rganishlarni muvofiqlashtirsin.

8. Axborot-tahlil, ijro intizomi va ma'muriy amaliyot boshqarmasi (J.Mirsaidov) ushbu buyruqni manfaatdor tarkibiy bo'linmalar e'tiboriga yetkazsin.

9. Mazkur buyruq ijrosini nazarat qilish Inspeksiya boshlig'inining birinchi o'rribosari M.Rasulov zimmasiga yuklansin.

Boshliq
Toshkent sh.

A. Vaxabov

Inspeksiya boshlig‘ining
2023-yil “5” maydagi
UM-6-23-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

Inspeksiyaning 2023-yil I yarim yillik ish rejasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-dekabrdagi “Iqtisodiy jihatdan samarasiz, kam hosil beradigan bog‘ va tokzorlarni yaroqsiz deb topish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1012-sonli qarori ijrosini markaziy apparat tomonidan, Farg‘ona viloyatining meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan tumanlarida o‘rganish o‘tkazish yuzasidan

D A S T U R

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-dekabrdagi “Iqtisodiy jihatdan samarasiz, kam hosil beradigan bog‘ va tokzorlarni yaroqsiz deb topish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1012-sonli qarori 3-bandi ijrosining bajarilishini Farg‘ona viloyatida o‘rganish:

Bunda, o‘rganish belgilangan viloyatdagি meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan tumanlarda fermer, klaster va kooperatsiyalarning iqtisodiy samarasiz, kam hosil beradigan bog‘ va tokzorlarni aniqlash bo‘yicha tuman komissiyasini tuzilganligi;

komissiya tomonidan aniqlangan yaroqsiz bog‘ va tokzorlarni o‘rnida yangidan intensiv usulda bog‘ va tokzorlar barpo etish yoki haydaladigan yerlar toifasiga o‘tkazish yuzasidan komissiya xulosasi, dalolatnama va boshqa asoslantiruvchi hujjatlari mavjudligi;

Mazkur nizom talabiga ko‘ra iqtisodiy jihatdan samarasiz, kam hosil beradigan bog‘ va tokzorlarni yaroqsiz deb topilishida 6 bosqichli tadbirlarning ketma-ket bajarilishiga amal qilinganligi.

Hududlarda fermer xo‘jaliklari, klasterlar va kooperatsiyalar hamda boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tumanlar hokimliklarida tuzilgan komissiya xulosasiga ko‘ra iqtisodiy samarasiz, kam hosil beradigan bog‘ va tokzorlar deb topilgan bog‘-tokzorlarni buzish ishlariga kirishilganligi hamda ushbu buzilgan bog‘ va tokzorlar o‘rnida yangidan intensiv usulda bog‘ va tokzorlar barpo etilganligi yoki haydaladigan yerlar toifasiga o‘tkazish yuzasidan tuman xokimliklarining tegishli qarorlari qabul qilinganligi;

o‘rganish yakunlariga ko‘ra aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tahliliy ma’lumotlar asosida belgilangan tartibda Inspeksiya rahbariga axborot kiritish.

Inspeksiya boshlig‘ining
2023-yil “5” maydagি
14-6-23-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

**Ishchi guruh tomonidan viloyat tumanlarida o‘rganish o‘tkazish
GRAFIGI**

| Hudud nomi | O‘rganish o‘tkazish sanasi | | |
|------------|----------------------------|--------|--------|
| Farg‘ona | 22-may | 23-may | 24-may |